



BUYRUG'I

2025y. « 19 » 11

2022-son

Toshkent shahri

Korrupsiyaga qarshi ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori ijrosini hamda xalqaro ISO 37301 standarti talablarini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun "Mineral resurslar instituti" DM huzurida tuzilgan Maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga;

- "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom" (keyingi o'rinlarda – Nizom) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

tizim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish;

institutda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga muvofiq munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

3. Belgilasinki:

Mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq xodimlarni rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, holislik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud

bo'lganda bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida rag'batlantiriladi:

xodimlar tomonidan o'zlariga nisbatan pora berishni taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

fuqarolar tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

4. Institut tarkibidagi bo'limlar va laboratoriyalarda sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumotlar joriy yilning 1-noyabridan boshlab to'g'ridan-to'g'ri yoki quyidagi aloqa kanallari orqali berilishi ta'minlanadi:

- Bevosita Institut direktori M.U. Isoqovga;
- Institutning Odob-axloq komissiyasi raisiga;
- Ishonch tel.: 71-209-08-90 (5011);
- Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tel.: 71-209-08-95 (5020);
- Pochta orqali - 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Olimlar ko'ch., 64-uy;

- Onlayn, rasmiy Web-sayt orqali: <https://mridm.uz>;

- Telegram orqali: https://t.me/mri_dm;

- Murojaat uchun teleqrambot: @mrimumurojaatbot;

5. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat etakchi mutahassisi (U.Raupov) va Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (F.Halilova) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirish, devonxona mudiri (M.Uralova) ushbu buyruq "Mineral resurslar instituti" DMning tarkibiy bo'linmalariga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish ilmiy ishlar va inovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari M.Sh.Ahmedov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 3-oktyabrdagi 126-son buyrug'i "Korrupsiyaga qarshi ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida".

Direktor, g.-m.f.d.

 **M.U.Isoqov**

**"Mineral resurslar instituti" DM huzuridagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida
xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan
xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiquvchi Maxsus komissiya
TARKIBI**

Maxsus komissiya rahbari:

- | | | |
|----|------------------------------------|--|
| 1. | Axmedov Murod
Shermuxammadovich | Ilmiy ishlar va inovatsiyalar bo'yicha
direktor o'rinbosari |
|----|------------------------------------|--|

Komissiya a'zolari:

- | | | |
|----|--|--|
| 2. | Tal'atxodjaev Doniyor
Shuxratovich | Tijoratlashtirish bo'yicha
direktor o'rinbosari |
| 3. | Xalilova Firuza
Asrorovna | Inson resurslarini boshqarish
bo'lim boshlig'i |
| 4. | Odinayeva Shaxnoza
Rag'batovna | Bosh huquqiy maslahatchi |
| 6. | Xamidullaev Baxrom
Narzullaevich | Kasaba uyushmasi raisi,
GIT va MXKQI Markazi mudiri |
| 7. | Xalilov Furhat
Faxrutdinovich | Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha
yetakchi muhandis |
| 8. | Abdusamatov Abdulboriy
Abdulaziz o'g'li | AKTR bolimi yetakchi muhandis |
| 9. | Raupov Uktam
Sharifovich | Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
bo'yicha yetakchi mutaxassisi |

**Izoh: Maxsus komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda, uzoq muddatli xizmat safarida bo'lganda, mehnat yoki kasalligi tufayli ta'tilda bo'lgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga tayinlangan yohud ularning vazifasini vaqtincha bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*

Shu bilan birga, korrupsiyaga oid ma'lumotlar ushbu komissiya a'zolaridan biriga tegishli bo'lsa, u vaqtinchalik mazkur jarayondan chetlatiladi.

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi
to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini kozlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar "Mineral resurslar instituti" DM va tarkibiy tuzilma xodimlari;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud yordam ko'rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish - Institutning "Korrupsiyaga qarshi siyosati", "Odob-axloq kodeksi", "Manfaatlar to'nashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom", "Sovg'a berish va olish siyosati" kabi ichki me'yoriy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganda, o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi jarayonida bevosita ko'maklashish;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61¹, 193¹ va 193²- moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar - O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish ko'rsatilgan jinoyatlar.

3. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirishning (keyingi o'rinlarda – rag'batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissassi uchun munosib taqdirlash.

4. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

5. Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyoriy bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

6. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari

7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan xodimlarga nisbatan pora taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarligi haqida aloqa kanallari orqali xabar berishi natijasida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yohud fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida yohud o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bevosita o'z rahbariga bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar Maxsus komissiya taqdimnomasi asosida **quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti yoki sovg'a bilan rag'batlantiriladi:**

- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarga esdalik sovg'a qiymati - **bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha;**

- korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun **bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarigacha;**

- pora summasi yoki yetkazilgan zarar yohud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk haqida berilgan xabar uchun **bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yuz baravarigacha miqdorda.**

9. Xodim korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

10. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, mazkur xabar tasdiqlanganda;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda.

11. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Institutning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

12. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi "Mineral resurslar instituti" DM huzurida tuzilgan Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

13. Maxsus komissiyaning tarkibi "Mineral resurslar instituti" DM buyrug'i bilan tasdiqlanadi va Maxsus komissiya taqdimnomasi asosida rag'batlantirish amalga oshiriladi. Quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

soha xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish;

institutda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

14. Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi: ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoki ogzaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar; sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar.

15. Maxsus komissiya taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Institut buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

16. Maxsus komissiya tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to'liqliligi, asosiligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi.

17. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

18. Rag'batlantirish bo'yicha Maxsus komissiya tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida ijro uchun yuboriladi.

19. Maxsus komissiyaning raisi komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

20. Maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida ichki buyruq chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng besh ish kuni ichida xodimlarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa

qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng uch ish kuni ichida topshiriladi.

21. Tashakkumoma shaklida rag'batlantirish masalasi Institut rahbariyati yoki Tog'-kon sanoati va geologiya vaziri tomonidan ko'rib chiqiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar


22. Rag'batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning reestri Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi tomonidan yuritiladi va har chorakda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hisobot berib boradi.

23. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ulaming oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

24. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ulaming oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.



"Mineral resurslar instituti" DM
Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha
Komplayens Siyosati

1. Umumiy qoidalar. Asosiy atamalar va ta'riflar.

1.1. Komplayens siyosati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari "Mineral resurslar instituti" DM ning (keyingi o'rinlarda – "MRI" DM, institut) korporativ standartlari va xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan. U xalqaro standartlar, tavsiyalar, hujjatlar va ilg'or amaliyotlarning tegishli qoidalarini o'z ichiga oladi. Siyosat komplayens boshqarish tizimini tashkil etish tartibini belgilaydi hamda ushbu tizimni samarali yaratish, joriy etish, saqlash va takomillashtirishga oid mezon va talablarni o'zida aks ettiradi.

1.2. Komplayens siyosati:

- ushbu hujjat "MRI" DM ning korporativ standarti hisoblanadi. U institut faoliyatining amaldagi qonunchilik talablariga, shuningdek, institut tomonidan qo'llaniladigan ichki qoidalar va standartlarga (komplayens majburiyatlariga) rioya qilinishini nazorat qilishga asoslanadi;
- mazkur standart tegishli strategik davr uchun institut qadriyatlari, maqsadlari va strategik rejalari bilan muvofiqlashtirilgan;
- u "MRI" DM faoliyatidan kelib chiqadigan va unga mos keladigan komplayens majburiyatlarini belgilash uchun asos yaratadi;
- shuningdek, amaldagi talablarni bajarish va komplayensni boshqarish tizimini doimiy takomillashtirish bo'yicha majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

1.3. Komplayens siyosati quyidagilarni belgilaydi:

- "MRI" DM konteksti (ichki muhitni), manfaatdor tomonlarning talablari, shuningdek institutning komplayens majburiyatlari;
- komplayens boshqarish tizimining qo'llash sohasi va yo'nalishlari;
- komplayens boshqarish tizimining maqsadlari, vazifalari va printsiplari, shu jumladan ichki va tashqi manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni boshqarish amalga oshiriladigan printsiplar;
- komplayens boshqarish tizimining tuzilishi, ishtirokchilarining funktsiyalari, vakolatlari va majburiyatlari, shuningdek "MRI" DMning va jalb qilingan shaxslarning kundalik faoliyatida komplayens majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan protseduralar va standartlar.

1.4. Komplayens siyosatining maqsadlari:

- komplayens boshqarishning samarali tizimini yaratish, shu jumladan komplayens xavflarni samarali boshqarish;
- komplayensning asosiy tamoyillarini ishtirok etgan va uchinchi shaxslarga etkazish;
- "MRI" DM ning ochiq va halol biznes yuritish tamoyillariga sodiqligini tasdiqlash;
- komplayens majburiyatlarga rioya qilish bilan bog'liq xatarlarni samarali boshqarish bo'yicha institutning majburiyatini namoyish etish;

- tegishli xarajatlar va obro'ga zarar etkazish bilan bog'liq qoidabuzarliklar xavfini minimallashtirish;
 - "MRI" DM ning ishbilarmonlik obro'sini himoya qilish va mustahkamlash.
- 1.5. Komplayens siyosatiga nisbatan quyidagi atamalar quyidagilarni anglatadi:
- hujjatlashtirilgan ma'lumot** - nazorat qilinishi va saqlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar, shuningdek uni o'z ichiga olgan axborotni tashish vositasi.
- ishtiroq etgan shaxslar** - "MRI" DM bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan har qanday xodimlar va shaxslar, shuningdek "MRI" DM nomidan ish yuritadigan boshqa shaxslar;
- manfaatdor tomon** - "MRI" DM tomonidan faoliyatni amalga oshirishga yoki qaror qabul qilishga ta'sir qilishi, o'zini oxirgi shaxs sifatida qabul qilishi mumkin bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs (*masalan, mijozlar, muassislar, "MRI" DM xodimlari, etkazib beruvchilar, sheriklar va boshqalar*);
- Komplayens** - "MRI" DM ning talablarga rioya qilish bo'yicha barcha majburiyatlarini bajarishi, shu jumladan muvofiqlik bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, biznes amaliyoti standartlari;
- komplayens-majburiyatlar** - "MRI" DM majburiy ravishda bajarishi kerak bo'lgan talablar (*qonunchilik talablari, O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan komplayens sohasidagi xalqaro huquq talablari, "MRI" DM va/yoki jalb qilingan va uchinchi shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan komplayens masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va boshqalar*), shuningdek mazkur sohadagi normalar (*xorijiy standartlar, tavsiyalar, hujjatlar va eng yaxshi amaliyotlarning tegishli qoidalari*);
- "MRI" DM konteksti** - bu "MRI" DM ning maqsadlari, komplayens boshqarish tizimining samaradorligi va/yoki ushbu maqsadlarga (natijalarga) erishish va komplayens boshqarish tizimining samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi omillar (shartlar) to'plamidir;
- manfaatdorlik bilan bog'liq bitim** - afillangan yoki ishtirok etgan shaxsning qiziqishi (shu jumladan shaxsiy) mavjud bo'lgan bitim;
- komplayens boshqarish tizimi** - bu "MRI" DM ning normativ- huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadigan, funktsional yo'nalishlar bilan amalga oshiriladigan va institut xodimlari egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, komplayens tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydigan qoidalar va protseduralardan iborat bo'lgan, noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini oldini olishga qaratilgan korporativ madaniyat va qadriyatlar elementlari to'plami;
- uchinchi shaxs** - bu "MRI" DM ga bog'liq bo'lmagan shaxs yoki organ, yuridik yoki jismoniy shaxs (*jalb qilingan shaxslardan tashqari*), shu jumladan vazirlik xodimi o'z faoliyatini amalga oshirish yoki o'z funktsiyalarini amalga oshirish doirasida o'zaro aloqada bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shu jumladan kontragentlar, mijozlar, biznes sheriklar, agentlar, vositachilar, pudratchilar, shuningdek boshqa shaxslar, shu jumladan davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari;
- Komplayens reglamentlari** - komplayens sohasidagi me'yoriy talablarga rioya etilishini samarali nazorat qilishga qaratilgan "MRI" DM ning tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlari (*shu jumladan Komplayens siyosati, Odoq-ahloq kodebi, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati, Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Nizomi*). Komplayensni tartibga soluvchi asosiy qoidalar "MRI" DM ning rasmiy sahifasida joylashtirilgan;
- Komplayens xavf-xatarlar** - amaldagi me'yoriy hujjatlar va qoidalarga rioya qilmaslik xavfi, shu jumladan "MRI" DM va uning xodimlarini javobgarlikka tortishi va/yoki zarar (*moliyaviy, mulkiy yoki obro'-e'tiboriy*) paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin;

kontragent - "MRI" DM tomonidan tuzilgan bitimning tarafi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

nazorat - yuridik shaxsga nisbatan ovoz berish huquqiga ega bo'lgan, uning rahbarlarini tayinlash va/yoki lavozimidan chetlashtirish huquqiga ega bo'lgan yoki ushbu yuridik shaxs faoliyatini boshqarish bo'yicha majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega jismoniy va yuridik shaxslar;

manfaatlar to'qnashuvi - shaxsning shaxsiy qiziqishi (*bevosita yoki bilvosita*) uning rasmiy yoki xizmat vazifalarini to'g'ri bajarishiga ta'sir qilishi yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va (*haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi*) yuzaga keladigan yoki (*ehtitnoliy manfaatlar to'qnashuvi*) yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

meyoriy hujjatlar - qonunosti hujjatlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar va tartibga solish talablari, ichki me'yoriy hujjatlar, shuningdek biznes qoidalari, axloqiy me'yorlar, amaliyotlar va protseduralar;

xodim - mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma doirasida "MRI" DM bilan munosabatlarda bo'lgan, shu sababli ushbu shaxs mehnat majburiyatlarini bajaradigan, ishlab bajaradigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxs.

2. "MRI" DM konteksti va manfaatdor tomonlarning talablari

2.1. "MRI" DM da rejalashtirilgan natijalarga erishish qobiliyatiga, shu jumladan komplayens boshqarish tizimining samaradorligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim ichki va tashqi omillarni yuqori darajadagi (strategik) tushunishni o'rnatadi.

2.2. Kon-geologiya vazirligi rivojlanishining maqsadlari va strategik yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lgan va komplayens boshqarish tizimining samaradorligiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni o'z ichiga olgan "MRI" DM konteksti tegishli strategik davr uchun alohida hujjatda belgilanadi.

2.3. Ichki va tashqi omillar "MRI" DM tomonidan doimiy ravishda kuzatiladi va ko'rib chiqiladi. "MRI" DM, shuningdek, uning tashqi va ichki muhitiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kelajakdagi tegishli tendentsiyalarni hisobga oladi. Tashqi va ichki omillarning o'zgaruvchanligini tushunish, shuningdek ularni tahlil qilish, komplayens boshqarish tizimini rejalashtirish, amalga oshirish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun asos yaratadi.

2.4. "MRI" DM konteksti uchun muhim bo'lgan ichki va tashqi omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

1) ichki omillar

- "MRI" DM faoliyatining umumiy natijasi, shu jumladan moliyaviy natijalar;
- resurslar bilan bog'liq omillar, shu jumladan infratuzilma, jarayonlarni amalga oshirish muhiti, "MRI" DM ning bilim bazasi;
- xodimlar bilan bog'liq jihatlar, masalan, xodimlarning malakasi, korporativ madaniyat va boshqalar;
- ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq omillar;
- qaror qabul qilish qoidalari va tartibari yoki tashkiliy tuzilma kabi "MRI" DM ni boshqarish bilan bog'liq omillar;

2) tashqi omillar

- iqtisodiy vaziyat;
- mintaqaviy ishsizlik darasi, xavfsizlik hissi kabi ijtimoiy jihatlar;

- siyosiy barqarorlik, davlat investitsiyalari, mintaqaviy infratuzilma, xalqaro savdo shartnomalari va boshqalar kabi siyosiy jihatlar;
- axborot texnologiyalaridagi yangi yo'nalishlar, ularni qo'llash, amalga oshirish, rivojlantirish va boshqalar kabi texnologik jihatlar;
- raqobat, shu jumladan jamoa egallagan bozor ulushi, bozor etakchilarining tendentsiyalari, mijozlar bazasining o'sish tendentsiyalari, bozor barqarorligi;

- ish muhitiga ta'sir qiluvchi omillar, shu jumladan qonunchilik va tartibga solish talablari.

2.5. "MRI" DM tashqi va ichki omillarga qo'shimcha ravishda manfaatdor tomonlarning talablarini hisobga oladi. Shu bilan birga, "MRI" DM nafaqat o'z mijozlari va shartnomalar/kontraktlar tuzilgan kontragentlarning, balki komplayens boshqarish tizimi uchun muhim bo'lgan manfaatdor tomonlarning talablarini ham hisobga oladi.

2.6. Manfaatdor tomonlarning komplayens menejmenti tizimi uchun ahamiyatlilik darajasini aniqlashda "MRI" DM quyidagilarni hisobga oladi:

- institut faoliyatiga yoki uning qarorlariga mumkin bo'lgan ta'sir darajasi;
- xavf va imkoniyatlarni yaratish qobiliyati;
- institutning qarorlari yoki harakatlariga bo'ysunish imkoniyati.

2.7. Institutning komplayens boshqarish tizimlariga ta'sir ko'rsatadigan quyidagi manfaatdor tomonlarni belgilaydi:

1) tashqi:

- mijozlar;
- aktsiyadorlar;
- nazorat organlari;
- tashqi etkazib beruvchilar (kontragentlar / sheriklar);
- qonun chiqaruvchi va tartibga soluvchi organlar (mahalliy, mintaqaviy, milliy yoki xalqaro);
- raqobatchilar;

2) ichki: jalb qilingan shaxslar.

Komplayens boshqarish tizimida hisobga olinadigan manfaatdor tomonlarning ustuvor talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

- qonun hujjatlariga, tartibga soluvchi organning tavsiyalariga va nazorat qiluvchi organlarning boshqa talablariga rioya qilish;
- shartnoma munosabatlariga rioya qilish (shartnomalar, bitimlar va boshqalar);
- "MRI" DM ning normativ-huquqiy hujjatlariga, buyruqlarga va boshqa ma'muriy hujjatlariga rioya qilish;
- jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni olish va (yoki) legallashtirish, terrorchilik faoliyatini moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish yoki tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq shubhali operatsiyalarni amalga oshirishda, shuningdek iqtisodiy sanksiyalar joriy etilgan maxsus nazorat qiluvchi shaxslarning moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishda "MRI" DM ning ishtirok etishidan qochish;
- jalb qilingan shaxslar va "MRI" DM ning uchinchi tomonlarining noo'rin, axloqsiz harakatlari to'g'risida xabardor qilish imkoniyati;
- korrupsiyaga qarshi kurashish;
- manfaatlar to'qnashuvi va uning shartlarini oldini olish/aniqlash;
- "MRI" DM dan tashqarida xodimlarning xulq-atvor qoidalariga rioya qilish;
- ichki ma'lumotlardan foydalanishni nazorat qilish;
- biznes amaliyoti standartlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- hisobotlarning to'liqligi va dolzarbligiga rioya qilish, shu jumladan komplayens masalalari;

- komplayens masalalari bo'yicha o'qitish va maslahat berish (muvofiglik so'rovlarini o'z ichiga olgan holda).

3. Komplayens siyosatining qo'llash sohasi va maqsadi

3.1. Komplayens boshqarish tizimining qo'llash sohasi "MRI" DM duch keladigan asosiy komplayens xavf-xatarlarini tushunish, shuningdek komplayens boshqarish tizimlari qo'llaniladigan geografik va tashkiliy chegaralarni belgilash uchun aniqlanadi.

Komplayens boshqarish tizimini qo'llash sohasi:

yer qa'rini geologik o'rganish, undan foydalanish, himoya qilish hamda mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash sohasida davlat siyosatini yurg'izish;

Faoliyat turlari bo'yicha komplayens boshqarish tizimi quyidagilar:

- foydali qazilmalarni izlash va qidirish;
- foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash;
- xaridlar;
- mahsulot sifatini boshqarish;
- xodimlarni boshqarish;
- moliyaviy menejment;
- korrupsiyaga qarshi kurashish.

3.2. Komplayens boshqarish tizimining qo'llash sohasini aniqlashda quyidagilar ta'sir qiladi va hisobga olinadi:

- "MRI" DM ning biznes jarayonlari tizimiga kiritilgan barcha biznes jarayonlar (shu jumladan ularning o'zgarishi);
- faoliyat jarayonida "MRI" DM duch keladigan komplayens xavf-xatarlarining tabiati va darajasi;
- "MRI" DM konteksti;
- tegishli manfaatdor tomonlarning talablari.

Shunday qilib, komplayens boshqaruv tizimini joriy etish sohasi butun institut miqyosida hamda institut faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab olgan holda belgilanadi.

3.3. "MRI" DM manfaatdor tomonlar, shu jumladan aktsiyadorlar, biznes sheriklar, mijozlar, kontragentlar, jalb qilingan shaxslar ushbu Komplayens siyosatining asosiy tamoyillariga rioya qilishlarini kutmoqda. Uchinchi shaxslar "MRI" DM bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Komplayens siyosatiga rioya qilishlari shart, shuningdek "MRI" DM ning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Komplayens siyosati bilan mustaqil ravishda tanishishlari mumkin.

3.4. "MRI" DM dagi komplayens nazorat-funktsiyalari "MRI" DM va uning xodimlari tomonidan qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishi bo'yicha komplayens boshqarish tizimini tashkil etish va ishlashini ta'minlaydigan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limiga yuklatilgan.

Ushbu yo'nalish bo'yicha nazorat normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muvofiqlashtirish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish orqali amalga oshiriladi.

3.5. "MRI" DM manfaatlar to'qnashuvini aniqlash tartibini tashkil etish, manfaatlar to'qnashuvining paydo bo'lishi sohalari va shartlarini aniqlash, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini istisno qilish choralarini ko'rish va "MRI" DM tomonidan ko'rilayotgan choralarning to'liqligi va samaradorligini nazorat qilish tartibini tashkil etish orqali manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

3.6. "MRI" DM rahbariyati, mansabdor shaxslar va xodimlar, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, manfaatlar to'qnashuvini o'z vakolatlari doirasida boshqarishda ishtirok etadilar, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladilar, unga murosasiz munosabat madaniyatini yaratadilar.

3.7. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi, shu jumladan tarkibiy bo'linmalar va boshqa jalb qilingan shaxslarning funktsiyalari, vakolatlari va javobgarligi, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini (uning paydo bo'lish sohalari) aniqlash, chiqarib tashlash, hal qilish bo'yicha ko'rilayotgan choralarning to'liqligi va samaradorligini nazorat qilish "MRI" DM ning normativ-huquqiy hujjatida belgilangan.

3.8. "MRI" DM korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tamoyilini e'lon qiladi va unga qat'iy amal qiladi. U korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga sharoit yaratadigan har qanday huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan choralarni ko'radi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari va tartiblari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda xalqaro amaliyotning umume'tirof etilgan normalari inobatga olinadi.

Ushbu yo'nalish quyidagi asosiy jihatlamini o'z ichiga oladi:

- korrupsiyaning oldini olishga doir asosiy tamoyillar va talablarni aniqlash;
- "MRI" DM xodimlari, jalb qilingan shaxslar hamda uchinchi tomonlarda korrupsiyani rad etish bo'yicha barqaror tushunchani shakllantirish;
- korrupsiya holatlarini aniqlash, ularga qarshi kurashish va oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- xodimlarning korrupsiyaviy faoliyatda ishtirok etish xavfini minimallashtirish;
- korrupsiya xatarlarini bartaraf etish masalalari bo'yicha biznes hamkorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish;
- korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablarini amaliyotga tatbiq etish. Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida ishlash tartibi, shu jumladan tarkibiy bo'linmalar va boshqa jalb qilingan shaxslarning funktsiyalari, vakolatlari va javobgarligi "MRI" DM ning normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan.

3.9. Biznes sovg'alarini berish va qabul qilish, shuningdek, xodimlarning "MRI" DM dan tashqari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha yagona samarali nazorat tizimini joriy etish maqsadida tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

3.10. "MRI" DM sotib olish va sotish jarayonlarining shaffofligi hamda qonuniyligini ta'minlaydi, shu bilan birga, ijobiy ishbilarmonlik obro'siga ega bo'lgan vijdonli mijozlar, kontragentlar va bimes hamkorlar bilan barqaror hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga intiladi.

Bitimlar tuzilishidan avval "MRI" DM qonuniy vositalar yordamida mijozlar, kontragentlar va biznes hamkorlarning faoliyatini tekshiradi.

3.11. "MRI" DM yetkazib beruvchilarni tanlashda hech bir tomon uchun asossiz imtiyozlar yaratmasdan, belgilangan tanlov qoidalari qat'iy amal qiladi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridini tashkil etish va o'tkazish, xarid uchun eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek, tarkibiy bo'linmalarning xarid tartib-tamoyillarini tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha yuklatilgan vazifalarini muvofiqlashtirish xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinishi va yetkazib beruvchilarni tanlash tartib-qoidalari ishtirok etuvchi tarkibiy bo'linmalar hamda boshqa jalb etilgan shaxslarning funktsiyalari, vakolatlari va javobgarligi "MRI" DM ning normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

3.12. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash "MRI" DM da quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- shaxsan rahbariyat va u vakolat bergan boshqa mansabdor shaxslar tomondan qabul qilish;
- murojaatlarning barcha shakllari va turlarini, shu jumladan reyestrda kiritilgan murojaatlar va takliflarni ko'rib chiqish va arizachilarga javoblar berish. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi, shu jumladan tarkibiy bo'linmalar va boshqa jalb qilingan shaxslarning funktsiyalari, vakolatlari va javobgarligi institutning ichki normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi.

3.13. "MRI" DM da anonim axborot berish tartib-qoidalarini joriy etilgan hamda tegishli tizim yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizim orqali "MRI" DM da sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa salbiy holatlar (shu jumladan har qanday darajadagi rahbariyat vakillari ishtirokidagi holatlar) bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash imkoniyati ta'minlanadi. Shuningdek, ushbu tizim "MRI" DM axborot siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida rahbariyatni hech qanday to'siqlarsiz, jumladan, anonimlik kafolati bilan xabardor qilish imkonini beradigan maxfiy va xavfsiz ogohlantirish mexanizmini o'z ichiga oladi.

Agar axborot "MRI" DM rahbariyatining noqonuniy yoki axloqqa zid harakatlariga taalluqli bo'lsa, bu to'g'risida bevosita direktorga xabar berilishi lozim. Qasos olishning har qanday shakli qat'iyan taqiqlanadi.

3.14. "MRI" DM da xodimlarning xulq-afuri yagona korporativ modelini yaratish uchun ishbilarmonlik xulq-atvorining asosiy normalari va standartlarini, korporativ qadriyatlar va qoidalarini, shu jumladan kasbiy etika tamoyillarini belgilaydigan hujjat ishlab chiqilgan va qo'llab-quvvatlanadi.

3.15. Mehnat intizomini mustahkamlash, samarali faoliyatni ta'minlash hamda ish vaqtidan oqilona foydalanishni rag'batlantirish maqsadida mehnat tartibini tartibga soluvchi ichki hujjatlar ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlar tarkibiga xodimlarni qabul qilish va ishdan bo'shatish tartibi, mehnat shartnomasi tomonlarining asosiy majburiyatlari, ish vaqti hamda dam olish vaqti rejimi, shuningdek, xodimlarga nisbatan qo'llaniladigan mehnat mukofotlari va intizomiy jazo choralariga oid qoidalar kiradi.

3.16. "MRI" DM tijorat maydonlarida o'zini tutish qoidalarini va me'yorlariga, shuningdek boshqa ishtirokchilarining qoidalariga, o'z majburiyatlarga, litsenziyalash talablariga, boshqa ishtirokchilar bilan tuzilgan shartnomalar va kelishuvlarga rioya qiladi.

